


Xalqaro loyiha: sun'iy yo'ldosh va kosmik qurilmalarda energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal qilish

O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan NATO ning Tinchlik va xavfsizlik uchun ilm-fan (SPS) dasturi doirasida "Lightweight, Stable and Efficient Light Harvesting in Space with Hybrid Inorganic-Organic Perovskite Solar Cells" topshirilgan mavzusidagi loyiha g'olib deb topildi.



Loyiha kosmik qurilmalar uchun energiya yechimlarini inqilob qilishga, bu sohadagi texnologik imkoniyatlarni sezilarli darajada oshirishga qaratilgan.

Loyiha institut professori Ashurov Nigmat Rustamovich boshchiligidagi tadqiqot guruhi va Germanianying Vuppertal Universiteti professori Tomas Riedl rahbarligidagi ilmiy jamoa bilan hamkorlikda olib borilishi ko'zda tutilgan.

Loyiha gibrid perovskit quyosh elementlarini (PSC) ishlab chiqishga qaratilgan.

Loyihaning asosiy maqsadi: elementlarni kosmik muhitning o'ziga xos talablariga moslashtirib, sun'iy yo'ldosh va kosmik qurilmalarda energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolarni hal qilishda iborat.